AHMAD SIRHINDIYNING “MAKTUBOT” ASARIDA MA’NAVIY-AXLOQIY QARASHLAR

Mirzayeva Feruzaxon Ahmadjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti,
Falsafa kafedrasi katta o‘qituvchisi,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya:
Mazkur maqolada Ahmad Sirhindiyning “Maktubot” asarida aks etgan ma’naviy-axloqiy qarashlar, xususan, inson kamoloti, nafs tarbiyasi, qalb pokligi, hamda shariat va tariqat uyg‘unligi masalalarining mohiyati yoritib berilgan. Shuningdek, “Maktubot” asarida ilgari surilgan insonparvarlik, bag‘rikenglik, halollik va mehnatsevarlik g‘oyalarining bugungi kundagi ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *Maktubot, Ahmad Sirhindiy, naqshbandiya-mujaddidiya, tasavvuf, ma’naviy-axloqiy qarashlar, nafs tarbiyasi, shariat va tariqat, inson kamoloti.*

KIRISH

Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy hayotida tasavvuf ta’limotlari muhim o‘rin egallagan. Ayniqsa, naqshbandiya tariqati asrlar davomida mintaqa ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Bugungi kunda dunyoning ko‘pgina davlatlarida naqshbandiya tariqati tarqalib, xalqaro miqyosda namoyon bo‘lmoqda. Chunki Bahouddin Naqshband, avvalo, islom dini shariati mezonlarini mahkam ushlagan va ularning buzilishiga yo‘l qo‘ymagan. Ikkinchidan, u chin insoniy fazilatlarni ilgari surgan, jamiyatning turli vakillari o‘rtasida futuvvat – javonmardlikni targ‘ib qilgan. Buning ortida odamlar bir-birlariga moddiy va ma’naviy yordam bera boshlaganlar, hayotdagi qiyinchilikni hamjihatlikda yengib o‘tib, shodliklarini birga baham ko‘rganlar. Bularning barchasi Bahouddin Naqshband jamiyatda targ‘ib qilgan insonparvarlik va birdamlikning yuksak namunasi edi.

XVII asr boshlarida hindistonlik mashhur mutafakkir va tasavvuf namoyandasi Ahmad Sirhindiy tomonidan shakllantirilgan mujaddidiya ta’limoti naqshbandiya tariqatining yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu ta’limotning nazariy asoslari Sirhindiyning “Maktubot” asarida o‘z ifodasini topgan.

“Maktubot” tasavvuf tarixidagi eng muhim manbalardan biri bo‘lib, turli shaxslarga yo‘llangan maktublardan tashkil topgan. Asarda diniy-axloqiy, ijtimoiy va tasavvufiy masalalar keng yoritilgan. Muallif insonning ma’naviy kamolotga erishishi, jamiyatda adolat va ezgulik qaror topishi uchun zarur bo‘lgan tamoyillarni nazariy va amaliy jihatdan asoslab bergan. Asarda insonning ma’naviy kamoloti, axloqiy pokligi, nafs tarbiyasi, ixlos, halol mehnat va ilm-ma’rifat kabi masalalar chuqur tahlil qilingan.

Naqshbandiya-mujaddidiya shayxlari ushbu g‘oyalarni faqat nazariy jihatdan emas, balki madrasa va xonaqohlar orqali amaliy hayotga ham tatbiq etganlar. Natijada mazkur ta’limot Markaziy Osiyo xalqlarining diniy, ma’naviy va madaniy taraqqiyotida muhim omilga aylangan.

Bugungi kunda ham “Maktubot” asarida ilgari surilgan insonparvarlik, bag‘rikenglik, ma’naviy poklik, halollik kabi g‘oyalar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shu bois mazkur asarni o‘rganish milliy va diniy merosni anglash hamda yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

“Maktubot” asarining markaziy mavzusi insonning ma’naviy kamolotga erishishi hisoblanadi. Muallif insonning tashqi amallari bilan bir qatorda uning ichki dunyosi ham pok bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Shuning uchun ham asarda qalb tarbiyasi, ixlos, sabr, shukr, tavoze va taqvo kabi fazilatlarga alohida e’tibor qaratilgan. Sirhindiyning fikricha, inson kamoloti ikki asosiy omilga bog‘liq:

1. Shariat ahkomlariga qat’iy rioya qilish;
2. Nafsni tarbiyalash orqali qalbni poklash.

Ahmad Sirhindiyning “Maktubot” asari shariat va tariqat ilmining uyg‘unlikda tarqalishiga xizmat qilgan. Ahmad Sirhindiyning 40-maktubi shariatning uch juzidan biri bo‘lgan ixlosni tahsil qilishning bayoni, tariqat va haqiqat, bu juzning tamomlanishi borasidagi masalalarni qamrab olgan. Tasavvufning barcha bosqichlarini ixlos bilan bosib o‘tgan murid fano bosqichiga yetib boradi. Sirhindiy tariqatni shariatning bir vositasi holida sifatlaydi. Shariatning uch qismi bor: ilm, amal va ixlos bo‘lib, bu uchovi birgalikda yaxlitlikni hosil qilmagunicha, shariat tom ma’nosi bilan tatbiq etilmaydi.

Tariqat va shariat ixlos bilan amalga oshirilgan ish orqali shakllanadi. Har bir inson zehnli bo‘lib tug‘iladi. Lekin hammaning ham zehni borliqni qamrab ololmaydi. Ba’zi insonlar hayotni idrok etishda, shariat qoidalarini tushunishda ojizlik qiladi. Ular jamiyatning zohiriy qoidalarini tushunmaydilar, botiniy qoidalar haqida esa o‘ylab ham ko‘rmaydilar. Shariatni borliqning ichki ko‘rinishi, haqiqatni esa borliqning asli deb o‘ylaydilar. So‘fiylarning so‘zlari bilan kifoyalanib qoladilar. Ko‘p hollarda va so‘fiylarning maqomlarida fitnaga tushadilar. Bu shariat va tariqat masalasida ma’rifatli yondashuv muhim ekanligiga dalolatdir. Ma’rifat shariat qonunlarini bilmoq bilan chegaralanmaydi. Bu qonunlarga amal qilishga undaydi.

So‘fiylarni jamiyatdagi boshqa insonlardan ajratib turuvchi tariqat shariatning bir xizmatchisi bo‘lib, vazifasi ixlosni kamolotga erishtirmoqdir. Tariqatga bog‘lanishdan maqsad faqatgina din ko‘rsatmalari asosida yashamoqdir, aslo yangi narsalarni o‘rtaga tashlamoq emas. Ilm jamiyatni harakatlantiruvchi kuch, borliq haqidagi tafakkurning tajallisidir. Asrlar, yillar o‘tib borsa-da, unga bo‘lgan ehtiyoj o‘zgarmaydi.

Shar’iy ilmlar tasavvuf ilmidan avval o‘rganilishi kerak deb, shariatni imon va islom, tasavvufni esa ehson maqomi sifatida ko‘rsatadi. Markaziy Osiyoga yuborilgan maktublar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, bu davrda mintaqada bid’at va xurofotlar, shariat ahkomlarini buzib talqin qilish holatlari avj olgan. Shunday vaziyatda Ahmad Sirhindiy maktublari islom aqidalarini to‘g‘ri tahlil qilishga, shariat va tariqatga doir masalalarga xolis yechim berishga xizmat qilgan. Muallif insonning ma’naviy yuksalishi faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy hayotda diniy va axloqiy qadriyatlarga rioya qilish orqali ta’minlanishini ta’kidlaydi. Asarning ko‘plab maktublarida insonning Allohga muhabbati, Uning roziligini qozonish va hayotning har bir sohasida diniy tamoyillarga amal qilish masalalari yoritilgan.

Shuningdek, “Maktubot”da nafs tarbiyasi masalasiga keng o‘rin berilgan. Sirhindiy insonning eng katta dushmani uning nafsi ekanligini ta’kidlaydi. Nafs insonni kibr, riyo,

hasad, manmanlikka yetaklaydi. Muallifning ta’kidlashicha, inson o‘z nafsini jilovlamas ekan, uning ibodatlari ham to‘liq samara bermaydi. Shuning uchun u muroqaba, zikr va tavba kabi usullarni nafs tarbiyasining muhim vositalari sifatida ko‘rsatadi. Xususan, 52-maktubda nafsi ammora xususida batafsil to‘xtalib o‘tilgan. Takabburlik, nafs istaklarini bajarish, xudbinlik kabi vasvasalar insonni yo‘ldan ozdiruvchi amallar ekanligi misollar orqali tushuntirib berilgan. Nafsga bo‘ysunmaslikda inson uchun juda ko‘p yaxshiliklar borligi, unga ergashmay, uni tarbiyalash esa, kishiga saodat eshiklarini ochishi ta’kidlanadi. Ahmad Sirhindiy maktublarida zikr qilinishicha, inson shar’iy buyruqlarga qanchalik amal qilsa, nafsoniy istaklari shunchalik yo‘q bo‘lib ketadi. Shundan ma’lum bo‘ladiki, shar’iy hukmlardan birini ado qilish, nafsoniy istaklarni ketkazish uchun ming yillik riyozatdan va kurashdan afzaldir. Nafs insonni o‘z domiga tortuvchi olovga qiyoslanadi, uning tubi chuqur bo‘lib, inson irodasi va tarbiyasi orqali uni yengishi mumkinligi bayon qilingan.

Sirhindiyning qarashlariga ko‘ra, qalb pokligi insonning tashqi ko‘rinishi yoki ijtimoiy mavqei bilan emas, balki uning axloqiy sifatlari bilan belgilanadi. Shu bois u ixlos, kamtarlik va sabrni haqiqiy mo‘minning asosiy xususiyatlari sifatida baholaydi.

Naqshbandiya ta’limotining asosiy shiorlaridan biri hisoblangan Bahouddin Naqshbandning “Dast ba koru dil ba Yor” tamoyili mujaddidiya ta’limotida ham muhim o‘rin egallaydi. Naqshbandiya-mujaddidiya ta’limoti mehnatsevarlik, halol rizq topish va jamiyat uchun foydali bo‘lish g‘oyalarini targ‘ib qilgan. Tariqatning markazida inson, uning hayot tarzi, g‘oyaviy yetukligi va axloqiy pokligi turgan. Bu jihat uning ijtimoiy hayot bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Sirhindiyning “Maktubot” asari tasavvuf tarixida chuqur ilmiy-falsafiy va ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan nodir manbadir. Unda insonning ichki dunyosini poklash, axloqiy kamolotga erishish va jamiyatda ma’naviy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan g‘oyalar tizimli ravishda yoritilgan.

Asarda ilgari surilgan nafs tarbiyasi, ixlos, sabr, shukr, taqvo hamda shariat va tariqat uyg‘unligi haqidagi qarashlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan. Ayniqsa, globallashuv sharoitida yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ushbu g‘oyalarning ahamiyati juda katta. Shu bois “Maktubot” asari nafaqat tarixiy manba, balki zamonaviy ma’naviy tarbiya uchun ham muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda Ahmad Sirhindiyning “Maktubot” asarida aks etgan ma’naviy-axloqiy qarashlar tizimli ravishda tahlil qilinib, undagi inson kamoloti, nafs tarbiyasi, qalb pokligi masalalarining o‘zaro bog‘liqligi ochib berildi. Naqshbandiya-mujaddidiya ta’limotining Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy hayotiga ta’siri hamda uning bugungi globallashuv sharoitidagi tarbiyaviy ahamiyati yoritildi. Shuningdek, naqshbandiya tariqatining jahonda keng tarqalishiga asosiy sabablardan biri ushbu tariqatning shariat talablariga hamohang ekanligi, ijtimoiy hayotdagi masalalarga javob bera olish xususiyatiga ega ekanligi maktublar orqali ochib berildi.

Tadqiqot natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Tasavvuf tarixini asl manbalar asosida xolisona o‘rganish istagida bo‘lgan yosh tadqiqotchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi

markazi bilan hamkorlikda Ahmad Sirhindiyning eng asosiy g‘oyalari jamlangan “Maktubot” asarining o‘zbek tiliga saylanmasini tarjima qilish va nashr etish.

2. Ahmad Sirhindiyning “Maktubot” asaridagi ma’naviy-axloqiy g‘oyalardan oliy ta’lim muassasalarining falsafa, dinshunoslik fanlarini o‘qitishda qo‘shimcha manba sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

3. Asardagi insonparvarlik va bag‘rikenglik g‘oyalaridan jamiyatda diniy-ma’rifiy madaniyatni rivojlantirish hamda turli ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlashda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abul Hasan Ali al-Hasaniy an-Nadaviy. Al-Imam as-Sirhindiy hayatuhu va a’maluhu. – Kuvayt: Dorul qalam, 1993. –121 b.
2. Ahmad al-Foruqiy as-Sirhindiy. Maktuboti Imom Rabboniy // Rahmi Tura nashrga tayyorlagan. T. 1. – Istanbul: Yasin Yayinevi, 2006. – 396 b.
3. Imam-i Rabbani. Mektubat-i Rabbani. Arabchadan Abdulkadir Akchichek tarjimasi. – Istanbul: Eko Ofset, 1977. T. 1. – 916 s.
4. Kişmî, Muhammed Hâşim, Berekât Zübdetü’l-Makâmât İmâm-ı Rabbânî ve Yolundakiler, trc. A. Fâruk Meyân. –İstanbul, 1976. – 229 s.
5. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – Toshkent: Yozuvchi, 1996. – 272 b.
6. Shayx Ahmad Foruqiy Sirhindiy Naqshbandiy. Maktuboti Ahmad Foruqiy. Qo‘lyozma. O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar asosiy fondi, № 8399/1. – 199 v.